

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

7/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Umurqulov Kamoliddin

O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI 9-12

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 13-22

Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna

SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA
AMALIYOTLARI 23-30

Сабитова Коринна Сабировна

ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ 31-37

Vaxabov Azizjon Xamidovich

USMONIYLAR SALTANATI VA O'RTA OSIYO XONLIKLARINING O'ZARO DIPLOMATIK HAMDA
ELCHILIK ALOQALARI 38-44

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI 45-51

Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboyevna

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA TEXNIK SALOHİYATDAN FOYDALANISHNING
IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI 52-57

Самадов Салохиддин Исматович

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ..... 58-66

Хуррамов Азамат Файзуллаевич

ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ 67-74

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Sharipov Abdukhakimjon Ziyotdinovich

YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVIY O'ZGARISHLAR
DINAMIKASI 75-80

Mustafaev Alimardon Alijonovich

THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT 81-89

Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich

"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" 90-95

Shadmanov Qurbon

FRENSIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH
G'OYALARI 96-101

Usmonov Farkhod Lapasovich

PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION 102-109

Atakulov Mavlonbek Saitkulovich

YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA
FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI 110-115

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Amanov Abdijabbor Sattarovich

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI 116-121

Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna

DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI 122-125

Hayitova Shohida Erkin qizi

KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR
TASNIFI 126-132

Qodirova Mukaddas Tog'ayevna

TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL 133-138

Aripova Aziza Xasanovna

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI 139-143

Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna

QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN
MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) 144-148

Axmedova Aziza Komilovna

PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI 149-153

Зокирова Шахзода Нодиржон қизи

ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ 154-158

Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna

METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE 159-163

Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi

ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI..... 164-169

Negmatova Mumtozbeqim

UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR 170-174

Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi

O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN
LINGVOMADANIY BIRLIKLER TAHLILI 175-178

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ismaylov Raxat Aminbayevich

NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY
MASALALARI 179-183

Сеитниязов Камарбек Парахатович

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС
ХУСУСИЯТЛАРИ 184-191

Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич

ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА
НАЗОРАТИ 192-198

Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING

HUQUQIY ASOSLARI 199-210

Шокиров Ойбек Азизжон ўғли

ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ
ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ

АСОСЛАРИ 211-218

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'P
BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI 219-222

Rabbimova Nodira Tashtemirovna

FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING

PEDAGOGICAL APPROACHES 223-227

Саидова Камола Усканбаевна

КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
МЫСЛИ 228-233

Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна

БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ

ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ 234-239

Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович

МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ 240-245

Buronova Iroda

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI

RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI 246-250

Matyakubova Feruza Egamovna

ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND

MODERN EDUCATION 251-254

Received: 10 September 2024
Accepted: 15 September 2024
Published: 25 September 2024

Article / Original Paper

THE ROLE OF CIVIC RESPONSIBILITY IN THE EDUCATION OF YOUNG PEOPLE ON THE BASIS OF A HEALTHY SPIRITUAL ENVIRONMENT

Atakulov Mavlonbek Saitkulovich

Doctoral student of Samarkand State University named after Sharof Rashidov

E-mail: worldstudent@mail.ru

Abstract. This article presents issues of strengthening attention to important factors of building a fair civil society, moral and legal education, compliance with the law with unconditional internal discipline, strengthening democratic principles, the skills of respect for the state, civil duty. It is also stated that increasing the legal literacy of young people, the comprehensive development of medium and small entrepreneurship, the formation and strengthening of a sense of responsibility in young people towards society, towards independence, are important in the fight against factors that negatively affect the development of society.

Keywords: Justice, youth, Healthy Living, National, Society, norm, neighborhood, ideology, law, ethics, hard work, upbringing.

YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI

Atakulov Mavlonbek Saitkulovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim omillariga, axloqiy va huquqiy tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish, qonunga so'zsiz ichki intizom bilan rioya etish, demokratik tamoyillarni, davlatga, fuqarolik burchiga hurmat ko'nikmasini mustahkamlash masalalari keltirilgan. Sheningdek, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, o'rta va mayda tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish, yoshlarda jamiyatga nisbatan, mustaqillikka nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish va mustahkamlash jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga qarshi kurashda muhim ekanligi bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: Adolat, yoshlar, sog'lom turmush, milliy, jamiyat, me'yor, mahalla, mafkura, huquq, axloq, mehnatsevarlik, tarbiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N15>

Kirish. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayoti sohalarida islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirish jarayonida ijtimoiy hayot sohasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga katta e'tibor qaratilayotganligi masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim omillariga, axloqiy va huquqiy tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish, qonunga so'zsiz ichki intizom bilan rioya etish, demokratik tamoyillarni, davlatga, fuqarolik burchiga hurmat ko'nikmasini mustahkamlash aksariyat mahallalarning faoliyat markaziga qo'yilgan. Shu o'rinda yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, o'rta va mayda

tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirish, yoshlarda jamiyatga nisbatan, mustaqillikka nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish va mustahkamlash jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga egadir. Yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirish asosida mafkuraviy immunitetini mustahkamlash asosida amalga oshiriladi.

Bu haqda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bizni doimo qiynaydigan, tinchlik bermaydigan orzu-niyatimiz, Yaratgandan so'raydigan eng katta tilak-iltijomiz shuki, betakror, go'zal, saxovatli Yangi O'zbekistonimizda, albatta, har tomonlama sog'lom, o'zining kuch-qudrati, barkamolligi bilan o'zgalarning havasini uyg'otadigan avlodlar yashashi kerak" [1; 205-b.]. deb ta'kidlaydi. Bu borada yoshlar tomonidan ilm-fan yutuqlarini chuqur egallash, xorijiy tillarni, kompyuter texnologiyalarini mustahkam o'rganish, halol mehnat qilib ishbilarmonlik va tadbirkorlik bilan shug'ullanish, O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga o'zining hissasini qo'shish yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish va yuksaltirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek yoshlarda sog'lom turmush tarzini tarixiy ildizlari, uni yuksaltirish bo'yicha dunyo tamadduni tarixida qo'llanilgan eng samarali mexanizmlar, olimlar tomonidan turmush tarzi sharoitlarini, uning tarixidan boshlab, bugungi kunga qadar rivojlanish va faoliyat usullarini, shakllarini, ijtimoiy xususiyatlarini o'rganishga oid ilmiy xulosalar asosidagi turli yondashuvlar, ularning dunyoqarashiga singdirish va ilmiy-falsafiy tahlil qilish muxim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda global tarmoq shiddat bilan rivojlanib, imkoniyatlari tobora kengaymokda. Yoshlarni bunday tahdidlardan himoya qilish uchun bilim dargohlarida, ilmiy-ijodiy maskanlarda, mahallalarda yoshlarni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qiladigan tadbirlar, uchrashuvlar, tanlovlar va davra suhbatlarini o'tkazishni ko'paytirish zarur. Yoshlarda sog'lom turmush tarzini ta'minlash, jismoniy va ma'naviy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash asosida mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni turli zararli illatlardan asrab avaylash, ularni turli g'oyaviy, mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish jarayoni sog'lom turmush tarzini qaror toptirish negizida amalga oshirilib kelmoqda. Sog'lom turmush tarzi - inson xatti-harakatining yakka individual tizimi bo'lib hisoblanadi va unda tabiiy, texnogen va ijtimoiy muhitda insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy hayot farovonligi va uzoq umr ko'rish ta'minlanadi. "Yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish tizimini yaratish; ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan voyaga etmaganlar va yoshlarga davlat tomonidan g'amxo'rlik ko'rsatish; voyaga etmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish; barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida zarur ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni vujudga keltirish [2; 116-160-b.]. Jamiyatdagi sog'lom turmush tarzi insonning fiziologik va ruhiy kamoloti uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi, sog'lom turmush tarzi turli kasalliklarning ehtimolini kamaytiradi hamda insonning uzoq umr ko'rishini yanada oshiradi deb ta'kidlaydi.

Shuningdek yoshlar orasida ham o'z tengdoshlariga axborot texnologiyalarini, ommaviy axborot vositalari tizimini yanada shakllantirish, rivojlantirish borasida qator qonunlar va qarorlar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilmoqda va ularni o'rganish bugungi kun uchun juda muhimdir. Hozirgi davrda O'zbekistonning eng chekka tumanlarida joylashgan o'quv dargohlarida xam eng zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan Internet kutubxonalari

tashkil etilgan. Endilikda eng chekka qishloqlarda tahsil olayotgan bolalar ham shahardagi tengdoshlari bilan har qanday sohada bellasha oladigan darajada bilimlarni egallamoqda, nafaqat O'zbekistonda sodir bo'layotgan, balki jahonda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy yangiliklar bilan tanishib, o'zining dunyoqarashini kengaytirib bormoqda.

O'zbekistonda milliy o'quvchi-yoshlar portali o'sib kelayotgan yigit-qizlar talablariga mos keluvchi axborotlarni tarqatish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, mazkur Portal yosh avlodning dunyoqarashi va psixologiyasidan kelib chiqadi. Milliy o'quvchi-yoshlar portali milliy mentalitetimiz, xalqimiz urf-odatlariga mos bo'lib, jamiyatimizning aksariyat sohalarini qamrab olgandir. Shunga ko'ra, Internet tarmog'i va ijtimoiy saytlar orqali tarqatilayotgan yolg'on axborotlar ta'siriga tushib qolmaslik uchun o'quvchi-yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yordam beruvchi foydali veb-saytlarni ko'paytirish masalasiga e'tiborni qaratish zarurdir. Bugungi kunda axborot iste'moli madaniyatiga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlar salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllangan bo'ladi.

Muhokama. Jamiyatda yuksak bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilishi va ularning yanada samarali bo'lishi jamiyatdagi ma'naviy axloqiy muhitga bog'liqdir. "Ma'naviy" so'zi inson ongi va qalbiga daxldor tuyg'ular, tushunchalar, xislatlar, fikrlar va qarashlarni mujassam etadi, "ahloqiy" so'z odobi, hulq-atvor qoidalari, fazilatlar, tamoyillar va hamda sharoitga ko'ra shakllangan, inson uchun ijtimoiy makon, sharoit vazifasini bajaradigan iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy omillar birligidir. Bugungi globallashuv sharoitida Internet singari axborot manbalari vositasida jamiyatdagi, oiladagi ma'naviy-ahloqiy muhitning qadriyatlariga daxl qilish holatlari ham uchramokda. Yoshlar o'zlarining asosiy vaqtini tengdoshlari orasida yoki Internet, turli to'garak mashg'ulotlari, klublarda o'tkazishga harakat qilishadi. "Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq [3; 24-25-b.]. Shuning uchun jamiyatda mahallaning ma'naviy-ahloqiy muhiti shaxsning ahloqiy ongi va xatti-harakatini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarni axborot xurujlari ta'siridan himoya qilishda mahalla muhiti muhim o'rin tutadi. Mahallada o'tkaziladigan tadbirlar natijasida o'quvchi yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirish, salohiyatini oshirish hamda axborot xurujlari ta'siridan himoyalash mumkindir. O'qish joylaridagi (maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, akademik lisey, kollej va oliy ta'lim muassasalaridagi) ma'naviy-ahloqiy muhit shaxs ongida insoniy fazilatlarini shakllantiradi, insonda insoniy hulq-atvor ko'nikmalarini hosil qiladi va eng asosiysi, kishi ongi va qalbida ideal holatga intilish hissini uyg'otadi. Chunki odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi bo'lib hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy muhitga yangilanish, rivojlanib borish va axloqiy qadriyatlarni muhofaza qilish xos bo'lib, buning uchun oilada oila boshliqlari, mahallada oqsoqol va maslahatchilar, ta'lim-tarbiya maskanlarida ustozlar, mehnat jamoalarida esa rahbar xodimlar mas'ul bo'lib hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy muhit insonni yuksak maqsad-muddaolarga, fe'l-atvor egasi bo'lishga yo'naltiradi va odob-axloq qoidalari rioya qilishga odatlantiradi. Shuning uchun o'quvchi-yoshlarning kamolotida ma'naviy muhit muhim o'rin tutib kelmoqda.

Yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish, fuqarolarda axloqiy va huquqiy ong hamda madaniyatni rivojlantirish milliy tarbiyani amalga oshirish, milliy o'zlikni anglash,

fuqarolarda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. "Mas'uliyat so'zining o'zagi "mas'ul" - javob beruvchi, javobgar degan ma'nolarni o'zida ifodalab, mas'uliyat yuklatilgan, vazifa javobgarligi zimmasida bo'lgan, javobgar ish natijasi uchun bo'lgan javobgarlik, biror ish xatti-harakatida natijaviy hisobot berishlik hamda mas'uliyatlilik qonuniyatlariga muvofiq qilinadigan hayotiy tajribalarda insonlar oldida turgan mukammal va nihoyatda yuqori o'rinda turuvchi amaldagi jarayonlar hisoblanadi" [4; 14-b.]. Inson ma'naviy etuk inson bo'lishi uchun avvalo o'zini o'zi anglab etishi zarur bo'lib, o'z-o'zini anglash tuyg'usi kishini katta ruhiy faoliyat ko'rsatishga da'vat etadi. Axloqiy ong va madaniyatga, huquqiy bilimlarga, keng dunyoqarashga va yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan inson insoniy qadr-qimmatni, o'z hulq-atvori va hatti-harakatini hamma joyda axloqiy me'yorlar asosida nazorat qiladi, o'z faoliyatini huquqiy qonun-qoidalar asosida tartibga soladi. Jamiyat hayotida ma'naviyat ustuvor bo'lgan sharoitda kishilar o'rtasidagi munosabatlar iymon, insof, diyonat, muruvvat kabi axloqiy me'yorlar va ishbilarmonlik, mehnatsevarlik, ijodkorlik va tashabbuskorlik kabi axloqiy fazilatlar asosida tartibga solinadi. Ushbu axloqiy me'yorlar va tamoyillar shaxs axloqiy ongi va madaniyati darajasini o'zida ifodalaydi. Inson shaxsi ma'naviy-axloqiy jihatdan qanchalik boy bo'lsa, huquqiy ongi va madaniyati darajasi qanchalik yuqori bo'lsa unda burch va mas'uliyat tuyg'usi shu darajada yuqori bo'ladi. Axloqiy ong va madaniyat inson va insoniyatga xos bo'lgan sifat darajasini o'zida ifodalaydi, insonning ongli faoliyati, aql-zakovatida namoyon bo'ladi. Axloqiylik insonning ichki zaruriy ehtiyojiga aylanib, uning axloqiy faoliyatining ijtimoiy yo'nalishini belgilab beradi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy dunyosi axloqiy qiziqish, axloqiy manfaat, axloqiy ehtiyoj, axloqiy faoliyat va axloqiy qadriyatlar kabi ma'naviy-axloqiy sifatlar tizimidan iborat bo'lib, O'zbekistonda olib borilayotgan milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirish jarayonida yuksak axloqlilik va huquqiy savodxonlik masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Inson axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga ijtimoiy voqea va hodisalarga, kishilarning xulq-atvoriga, axloqiy me'yor va qoidalarga muayyan g'oyaviy-axloqiy nuqtai-nazardan yondoshadi va ularga o'z bahosini beradi. Shuning uchun ham B.X.Jo'raev "jamiyatdagi demokratik jarayonlar va yoshlar faolligi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ular ikki muhim munosabatlar tizimining tarkibiy qismlari ekanligini siyosiy tafakkur chuqurroq idrok eta boshladi" [5; 13-b.]. deb yozadi. Axloqiy ong va madaniyat muayyan huquqiy tizimga asoslangan holda kishilar o'rtasidagi va jamiyat hayotida yuzaga keladigan axloqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Natija. Yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish va rivojlantirish O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlik, jamiyat taraqqiyoti va qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarning muhim asosi sifatida e'tirof etilmoqda. Yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish O'zbekistonda yoshlarning moddiy-ma'naviy va boshqa ehtiyojlarini qondirish, globallashuv tufayli axloqimizga, turmush tarzimizga kirib kelishga harakat qilayotgan buzg'unchi g'oyalardan ularni saqlab qolish asosida amalga oshirilmoqda. Yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish jarayoni jamiyat hayotida bir necha vazifalarning bajarilishi bilan uyg'un holatda amalga oshiriladi. Birinchidan: yoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish; amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyatini, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining ahamiyatini yoshlarimizga sharhlab berish va tushuntirish; yoshlar o'rtasida yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga yordam beradigan samarali targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

ma'naviyatning kuch qudratidan faqat ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish va rivojlantirish. Ikkinchidan: turli qarash va fikrlarga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va xarakatlarning o'ziga xos orzu intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oya - Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi g'oyalari barcha yoshlar uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish. Uchinchidan: qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalarni izchil davom ettirish; ta'lim-tarbiya tizimini muttasil takomillashtirish. Bu orqali kelajagimiz bilimli, dono va ma'naviy sog'lom, barkamol avlodga bog'liq ekanligini chuqur anglashga erishish. To'rtinchidan; ota-bobolarimiz va bizning muqaddas e'tiqodimiz bo'lmish Islom dinning bugungi hayotimizdagi o'rni va ta'sirini, yoshlarimizni ruhan pok, iymoni butun, irodasini baquvvat etishdagi, odamiylik fazilatlarini uyg'unlashtirishdagi hissasini va mohiyatini keng jamoatchilikka tushintirish borasidagi tashviqot ishlarini davom ettirish. Beshinchidan; mamlakatimiz yoshlarida hamjihatlik va birdamlik tuyg'ularini kuchaytirish; ularda Vatanning ravnaqi va porloq kelajagi uchun mas'uliyat tuyg'ularini mustahkamlash hamda ma'naviyat tarbiyasiga katta e'tibor qaratish. O'zbekistonda yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish, ularni etuk va barkamol inson qilib tarbiyalashda oila, mahalla, ta'lim muassasalari va turli ijtimoiy institutlarning birgalikdagi faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. O'zbekistonda yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish jarayoni ularni chuqur bilimli, teran fikrli, o'z o'tmishi durdonalaridan va ma'naviy qadriyatlaridan xabardor, vatanparvar, haqiqatparvar, Fidoyi qilib tarbiyalash asosida amalga oshirilmoqda. Yoshlarda yuksak fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish O'zbekistonda davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan bo'lib, bu sohada mamlakatimizda tizimli ravishda ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini yuksaltirish ularda fuqarolik mas'uliyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Yoshlarda fuqarolik mas'uliyati shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga qarshi kurashda ma'naviyat tarbiyasi, milliy g'oya va mafkurani fuqarolar, eng avvalo yoshlar ongi va qalbiga singdirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash muhim ahamiyatga egadir. Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi ishlarni takomillashtirishda yoshlarning huquqiy va axloqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviyat tarbiyasi va yoshlarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishning o'zaro bog'liqligi masalalari o'tkazilgan sosiologik tadqiqotlarda ham o'z ifodasini topgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlatda qonuniylik birinchi o'rinni egallab, jamiyat hayotida qonun ustunligiga amal qilinmoqda. Shu bilan birgalikda O'zbekistonda jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan huquqbuzarlik holatlari ham mavjud bo'lib, yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarlik holatlarining oldini olish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifasi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishdan iborat bo'lmoqda. Shu o'rinda Mamlakatimizda insonning salomatligi hamda jismoniy barkamolligi, uning sog'lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi muhim ijtimoiy qadriyat bo'lib hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – Б.205
2. Qarang: Mualliflar jamoasi. Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston! O'quv qo'llanma. – T.: "Ma'naviyat", 2017. – Б. 160. Б 116.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir //Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent: "O'zbekiston", 2020. 24-25 betlar.
4. Numonova D.U. O'zbekiston zamonaviy ma'naviy-madaniy taraqqiyotida ayollar mas'uliyatini oshirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili. 09.00.04-Ijtimoiy falsafa. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi. Samarqand 2020. 14 bet.
5. Jo'rayev B.X. O'zbekistonda jamiyatning demokratiyalashuvi jarayonida yoshlar siyosiy faolligi muammosi: Dis. ... Siyosiy fan. nomzodi: O'zR Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi. - T., 2004. - 13 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).